

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

3.2023

**научно-теоретический, методический журнал
Издаётся с 2001 года**

Urganch – 2023

<https://buxdu.uz>

tarqalgan. Parvoz operatsiyalari, havo harakatini boshqarish va boshqalarda ishlatiladigan keng tarqalgan va tez-tez ishlatiladigan qisqartmalar., masalan: RVSM – Reduced Vertical Separation Minimum (Minimal vertikal ajratish kamayadi – RVSM), ATS – Air Traffic Control (Havo harakatini boshqarish – HHB), AIP – Aeronautical Information Publication (Aviatsiya ma'lumotlari to'plami – AMT/AIP), CNS/ATM – Communications, navigation, and surveillance/air traffic management (Aloqa, navigatsiya va kuzatuv/havo harakatini boshqarish), WGS-84 – World Geodetic System 1984 (Jahon Geodeziya Tizimi – 1984 [5, c.74].

Qisqartmalar juda oddiy bo'lishiga qaramay, ko'plab tarjimonlar ularni tarjima qilishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelishadi. Birinchidan, bu yigirmanchi asrning 1990-yillarida taniqli siyosiy o'zgarishlardan so'ng, rus aviatsiya tilining rivojlanishi, asosan, rus tili endi ishlatilmaydigan mamlakatlar tarjimonlari e'tiboridan tashqarida bo'lganligi bilan bog'liq.

Xulosa va takliflar Grafik qisqartmalar nafaqat yozma nutqda, balki og'zaki nutqda ham so'zlar va iboralar guruhlarini qisqartirish natijasidir, vaqt va kuchni tejash uchun tegishli shakllar qo'llaniladi. Ingliz tilidagi eng qadimgi grafik qisqartmalar guruhi lotin tilidan kelib chiqqan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алексеев Д.И. Сокращенные слова в русском языке. Учебное пособие, Саратов, "Феникс", 1979, с. 328.
2. Алексеев Д.И. Графические сокращения и слова-аббревиатуры. Развитие современного русского языка. М., 1963, с. 49.
3. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. Москва, "ФЛИНТА", 2012, с. 188; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Москва, "Советская энциклопедия", 1996, с. 26.
4. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. Назрань, ООО «Пилигрим», 2010, с. 20.
5. Ковригина А.И. Реализация принципа экономии языковых средств в современной испанской прессе, Лексико-синтаксический аспект. Автореф. дис. канд. филол. наук, М., 2013, с. 6 – 7.
6. Кубрякова Е.С. Типы языковых значений: Семантика производного слова. Москва, 1981, с. 200; Елдышев А.Н. Строение и мотивированность сокращённых слов (к проблеме взаимодействия формально-содержательных признаков в слове). Автореф. дис. ...канд. филол. наук, М., 1982, с. 34; Дюжикова Е.А. Аббревиация сравнительно со словосложением: структура и семантика (на материале современного английского языка). Дис. ...докт. филол. наук, М., 1997, с. 340.
7. Маслова Г.Д. К вопросу о неологизмах в современном французском языке. Автореф. дисс. докт. филол., М., 1962, с. 22; [Волошин Е.П. Аббревиатуры в лексической системе английского языка. Автореф. дисс. канд. филол. наук, М., 1967, с. 26.
8. Пищальникова В.А. Соотношение симметричных и ассиметричных компонентов текста как синергетической системы. Языковое бытие человека и этноса: психолингвистический и когнитивный аспекты. Барнаул, 1996, с. 72 – 79.
9. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). Тошкент, "Университет", 2000, 554-бет.
10. Ренц Т.Г., Рыцарева А.Э. Словарь лингвистических терминов на английском языке. Волгоград, изд-во ВолГУ, 2003, с. 5.

Sayfulloev Baxshillo Nematulloevich (BuxDU Fransuz filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi)

FRANSUZ TILIDA O'ZGA NUTQ VA UNING IFODA USULLARI

Annotatsiya. Maqola kommunikativ maqsad kategoriyasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lmish o'zga nutq va uning fransuz tilida ifoda usullariga bag'ishlangan. Unda diqqat-e'tibor, asosan, o'zga nutq turlari bo'lmish ko'chirma nutq (le discours direct), o'zlashtirma nutq (le discours indirect) va o'ziniki bo'lmagan ko'chirma nutq (le discours indirect libre)ning matniy xususiyatlariga qaratilgan. Shu bilan birga, fransuz tilida o'zga nutq turlarining funksional-semantik xususiyatlariga izoh berilgan. O'zga nutqni matnda ifodalashda tinish belgilarining qo'llanilishi, xabar manbaining o'rni hamda nutq fe'llarining qo'llanish holatlari misollar asosida tahlil qilingan. Fransuz adabiy tilida ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirganda grammatik kategoriyalar, jumladan, zamon, shaxs, mayl va boshqalar moslashadi. Maqolada o'ziniki bo'lmagan ko'chirma nutq boshqa o'zga nutq turlaridan ekspressivlik va subyektivlik belgilari hamda fel zamon kategoriyalari bilan farqlanishi asoslab berilgan.

Аннотация. Статья посвящена одному из важных направлений категории коммуникативной цели: иностранной речи и способам ее выражения во французском языке. В ней основное вни-

мание уделено другим видам речи, т.е. прямой речи (*le discours direct*), косвенной речи (*le discours косвенная*) и несобственной речи (*le discours косвенная libre*). При этом объясняются функционально-семантические особенности других типов речи во французском языке. На основе примеров проанализированы употребление знаков препинания, место источника сообщения и употребление речевых глаголов в выражении иноязычной речи в тексте. Во французском литературном языке грамматические категории, в том числе время, лицо, наклонение и др., согласуются при превращении цитаты в притяжательное предложение. В статье обосновывается, что цитируемая речь, не являющаяся собственной, отличается от других видов речи признаками экспрессивности и субъектности, а также категориями глагольного времени.

Annotation. The article is dedicated to one of the important directions of the category of communicative purpose: foreign speech and ways of its expression in French. It focuses on other types of speech, i.e. direct speech (*le discours direct*), indirect speech (*le discours indirect*) and improper speech (*le discours indirect libre*). At the same time, the functional and semantic features of other types of speech in French are explained. On the basis of examples, the use of punctuation marks, the place of the source of the message and the use of speech verbs in the expression of foreign speech in the text are analyzed. In the French literary language, grammatical categories, including tense, person, mood, etc., are consistent when turning a quote into a possessive sentence. The article substantiates that the quoted speech, which is not one's own, differs from other types of speech in terms of expressiveness and subjectivity, as well as categories of verb tense.

Kalit so'zlar: o'zga nutq, ko'chirma nutq, o'zlashtirma nutq, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma nutq, matn, xabar manbasi, muallif nutqi, nutq fe'li, qo'shtirnoq, tire, ikki nuqta, zamon moslashuvi.

Ключевые слова: чужая речь, прямая речь, косвенная речь, несобственная речь, текст, источник информации, авторская речь, речевой глагол, кавычка, дефис, двоеточие, согласование времён.

Key words: someone else's speech, direct speech, indirect speech, improper speech, text, source of information, author's speech, speech verb, quotation mark, hyphen, colon, tense agreement.

Kirish. So'zlovchi hamma vaqt ham o'z fikrinigina bayon etibgina qolmay, ba'zan u o'zganing gapini ham o'z nutqi ichida ishlatadi. Shu asosda qo'shma gapning yana bir maxsus turi hosil bo'ladi. O'zganing gapini ifoda etuvchi shaxs muallif, uning gapi esa muallif gapi deyiladi. Muallifning ma'lum shaxs fikrini o'z nutqi ichida keltirishi o'zganing gapi, gapi ifoda qilinayotgan shaxs so'zlovchi sanaladi. So'zlovchi borliq haqida o'z fikrini emas, o'zgalarning fikri yoki suhbatini bayon qiladi. O'zga nutq orqali so'zlovchi adresatni o'zi yoki adresat amalga oshirgan voqea-hodisa mazmunidan xabardor qiladi. O'zga nutqning ifodalanishi turli uslubda turlicha bo'lib, har biri o'ziga xos grammatik me'yorga ega.

Asosiy qism. Kommunikativ maqsad kategoriyasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lmish o'zga nutq hodisasi zamonaviy tilshunoslikda o'z o'rniga ega yo'nalishlardan biridir. O'zga nutq 3 turga bo'lingan holda, kommunikatsiya hodisasi sifatida shakllanadi. Bular:

Ko'chirma nutq (*le discours direct*).

O'zlashtirma nutq (*le discours indirect*).

O'ziniki bo'lmagan ko'chirma nutq (*le discours indirect libre*).

O'zganing nutqi o'zgarishsiz, so'zma-so'z bayon qilinish hodisasi ko'chirma nutq (*le discours direct*) bo'lib, quyidagi ifoda usullari orqali amalga oshiriladi:

a) nutq fe'li (*dire*–*aytmoq*, *demande*–*so'ramoq*, *interpeller*–*murojaat qilmoq*, *s'écrier*–*hayqirmoq*, *baqirmoq* va *hokazo*) ikki nuqta va tirelardan foydalanish orqali.

La fillette le reconnut et s'écria:

–*Vous êtes mon professeur!*

–*En effet.*

–*Papa travaille dans son atelier. Il vous attend.*

Tout en le suivant à l'intérieur de la maison, Meredith remarqua immédiatement sa démarche étrange.

Misoldan ko'rinadiki, muallif nutqi ko'chirma nutqdan oldin kelganda nutq fe'lini tejash va ko'chirma gaplarda ifodalanagan turli xil emotsional holatlarni to'g'ri va tushunarli ifodalash maqsadida muallif va ko'chirma nutq ikki nuqta orqali ajratilgan va vertikal tartibda har bir ko'chirma nutq oldidan tire bel-gisi qo'llanilgan;

b) ko'chirma gap nutq fe'li va ikki nuqta (:) bilan kiritilmasdan ham matnda kelishi mumkin. Bunday holda muallif nutqi ko'chirma nutqdan keyin keladi va ular orasida hech qanday ajratuvchi belgi qo'yilmaydi:

- *Que fabriquez-vous ici? demanda le surveillant.*
- *Je viens voir ma soeur, elle travaille ici, répondit le jeune garçon.*
- *Vous n'avez pas l'autorisation. Allez-vous-en!*
- *Monsieur, je vous en prie, c'est une urgence!*

Yuqoridagi holatda ko'chirma nutq so'roq yoki undov gap bo'lmasa, muallif va ko'chirma nutq orasida vergul qo'yiladi.

–*Nous serons sans doute obligés de nous soumettre à ces règlements, affirma Louis;*

d) ko'chirma nutq ifodalanishida qo'shtirnoq va tiredan bir vaqtning o'zida ham foydalanish mumkin. Bunday holda, qo'shtirnoqlar har bir satrda emas dialogning faqat boshida va oxirida qo'yiladi hamda tirelar so'zlovchilar o'zgarishini ko'rsatib keladi:

Elle est entrée rapidement dans son bureau.

«Je pense que je mérite une explication!

– Non, je ne le pense pas.

– Vous m'avez menti! Je ne le tolère pas!

– Assieds-toi, je vais t'expliquer».

Elle s'est assise et a attendu pendant qu'il prenait une longue inspiration;

d) ko'chirma nutq ikki nuqta va qo'shtirnoq yordamida ham ifodalanadi. Bunda qo'shtirnoq (") yordamida to'g'ridan to'g'ri xabar qilingan gaplarni ajratish mumkin. Ko'chirma gapning bu shakli, odatda, nutq fe'li orqali kiritiladi va ikki nuqta (:) nutq fe'lidan keyin keladi.

1. *Il m'a dit: «Quel beau spectacle!»*

2. *La mère de la chanteuse a révélé : «Je suis tellement fière de ma fille!»*

Fransuz tilida o'zlashtirma nutq (*le discours indirect*) og'zaki yoki yozma nutqning morfosintaktik moslashuvi bo'lib, ko'chirma nutqqa qaraganda kamroq ob'ektivdir. O'zlashtirma nutqda xabar manbai bir muncha mavhum bo'ladi va odatda kontekstual yoki matniy tahlil orqali aniqlanadi. O'zlashtirma gapda tinish belgilari xabarning ifoda qilinish holatiga nisbatan qo'llaniladi. Bundan tashqari, qo'shtirnoqlar ishlatilmaydi.

O'zlashtirma nutq o'zga nutqni uzatishning yana bir usulidir. Bunda u muallif nutqiga grammatik jihatdan moslashadi. Aytilgan gap odatda muallif gapi tarkibidagi nutq feli (masalan, *dire*–aytmoq, *s'écrier*–hayqirmoq, *demander*–so'ramoq, *exiger*–talab qilmoq va *hokazo*)ning tobe bo'lagi sifatida shakllanadi va ergashgan qo'shma gap hosil bo'ladi. Bunda muallif nutqi bosh gap funksiyasini bajarsa, aytilgan gap ergash gap vazifasida keladi.

Il a exigé que tous les employés ont interrompu ma pause déjeuner et a procédé à la salle de réunion.

Yana bir misol. *J'ai dit que je serai de retour en retard et je n'ai pas eu à attendre.*

Zamon, shaxs va shu kabi boshqa moslashuvlar o'zlashtirma nutqning muhim jihatlaridan biridir. Grammatik nuqtayi nazardan bayon etuvchi nutqiga bo'ysunuvchi aytilgan gap ergash gap shaklini oladi va hikoyaning bir qismi bo'lgan holda, odatda, o'tgan zamonda keladi.

Jean prétend qu'il est malade. Il a ajouté qu'il n'irait pas travailler aujourd'hui, et il a eu le culot de me demander d'appeler le médecin!

O'zlashtirma va ko'chirma nutqning konstruksiyalari bir-biriga ma'lum darajada o'xshaydi. Ular ikki qismdan iborat bo'lib, biri muallif nutqi, ikkinchisi esa o'zganing xabari, buyrug'i yoki so'rog'idir. Ko'chirma nutqning o'zlashtirma nutqdan asosiy farqi shundaki, muallifning ko'chirma nutq qismi nisbatan mustaqil bo'lib, nutqda ma'lum bo'lgan turli xil stilistik vositalar orqali yetkazilishi mumkin.

O'zga nutqning uchinchi turi faqat badiiy adabiyotga xos bo'lib, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma nutq (*Le discours indirect libre*) deb ataladi. O'zga nutqning bu turi muallif matniga qo'shilib, asar qahramonlari fikr va tuyg'usini ifodalaydi, ularning ichki dunyosini ochib berishga xizmat qiladi. U muallif nutqi bilan birlashib chatishib ketadi. Bu uning grammatik jihatdan ifodalanishida namoyon bo'ladi. Unda o'zlashtirma, ko'chirma va muallif nutqining belgilari mavjud bo'ladi. Uning sintaktik tuzilishi ko'chirma gapnikiga o'xshaydi. Unda indikativ va dialogik nutqqa xos bo'lgan his-tuyg'uni ifodalovchi vosita (*modal so'z* va *yuklama*, *undov so'z*, *undov gap* kabi)lar qo'llanadi. III shaxs shaklining ishlatilishi esa uning o'zlashtirma nutq bilan bir xilligidan dalolat beradi. Muallif nutqi kabi unga ham o'tgan zamon shakllarining qo'llanishi xos. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapning bu belgilari faqat matnda namoyon bo'ladi. Kontekstdan tashqarida u odatdagi ko'chirma nutqdan farq qilmaydi. O'zga nutqning bu turida o'tgan zamon o'rnida hozirgi zamon ham uchraydi.

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma nutq fransuz grammatikasida erkin o‘zlashtirma uslub sifatida ham tanilgan. Bu adabiy konstruksiya birinchi marta 1887-yilda tilshunos Adolf Tobler tomonidan tasvirlangan bo‘lib, u buni Zola va Flober asarlarini o‘rganayotganda kashf etgan. Boshqa tilshunos Charlz Balli 1912-yilda unga nom bergan va uni “style indirect libre—erkin o‘zlashtirma uslub” deb atagan. Uning o‘ziga xosligi shundaki, unda nutq fe‘llari (parler—gapirmoq, dire—aytmoq, demander—so‘ramoq yoki interroger—savolga tutmoq, chuchoter—shivirlamoq, exprimer—ifodalamoq...) ishlatilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, ko‘chirma gapni o‘z ichiga olgan ergash gap bosh gap ishtirokisiz mustaqil gapga aylanadi. Fe‘llarning zamoni o‘zgaradi (ko‘pincha, o‘tgan zamonga o‘tish orqali) va xabar manbayi ham aniq ko‘rsatilmaydi.

Il met bas son fagot, il songe à son malheur. Quel plaisir a-t-il eu depuis qu’il est au monde?

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma nutq stilistik jihatdan kengroq erkinlikka, yorqinroq leksik va sintaktik bo‘yoqdorlikka ega. U, asosan, badiiy adabiyotda ergash gap sifatida emas, balki mustaqil gap sifatida keladi.

Pierre ouvre la fenêtre et regarde le ciel. Voici un Bourgogne coucher du soleil lumineux, probablement demain sera encore plus froid qu’aujourd’hui.

Boshqa tillar singari, fransuz tilida ham o‘zga nutqni ifoda etishda har bir uslub o‘ziga xos xususiyatga ega. Quyidagi misollarda ularning farqli jihatlarini ko‘rishimiz mumkin:

Ko‘chirma nutqda: *«Non! Je ne partirai pas d’ici, demain!»*

O‘zlashtirma nutqda: *Elle lui dit qu’elle ne partirait pas de là, le lendemain.*

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma nutqda: *Elle se fâcha. Non! Elle ne partirait pas de là, le lendemain!*

Yuqoridagi misolda ko‘chirma nutqda undov, so‘roq (!?) gap turlari, og‘zaki nutqning ifoda belgisi (Yo‘q!), subyektivlik belgilari (qahramonning nutq usullari) va ergash gap yo‘qligi ko‘zga tashlanadi.

O‘zlashtirma nutqda esa matn oldidan tire yoki qo‘sh tirnoq qo‘yilmasligi, vaqt va joy belgilari moslashuvi (u yerda, ertasi kun), bir xil olmoshlar (u), bir xil fe‘l zamonlarining qo‘llanilishi, zamon moslashuvi (partirair) va hikoya nutqi umumlashtirilishi kabi xususiyatlar o‘z aksini topadi.

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gapning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda nutq fe‘li ishlatilmaydi, shuning uchun ham ergash gaplar bo‘lmaydi va mustaqil gap shaklida ifodalanadi, ko‘pincha, o‘tgan zamon imparfait, plus-que-parfait de l’indicatif, présent du conditionnel à valeur de futur dans le passé qo‘llaniladi, xabar manbayi aniq ko‘rsatilmagan va o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma nutqni ba‘zan kontekstdan tashqarida aniqlash qiyin.

Misol tariqasida Nathalie Sarrautening Tropismes hikoyalar to‘plamidan bir parcha keltiramiz.

«Elle se tenait assise, les mains croisées sur son sac assorti, souriante, hochant la tête, apitoyée, oui, bien sûr elle avait entendu raconter, elle savait comme l’agonie de leur grand-mère avait duré, c’est qu’elle était si forte, pensez donc, elle avait conservé toutes ses dents à son âge... Et Madeleine ? Son mari... Ah, les hommes, s’ils pouvaient mettre au monde des enfants, ils n’en auraient qu’un seul, bien sûr, ils ne recommenceraient pas deux fois, sa mère, la pauvre femme, le répétait toujours. »

♦*Elle* → 3 shaxs birlik ;

♦*oui* → og‘zaki nutq belgisi ;

♦*bien sûr* → og‘zaki nutq belgisi;

♦*c’est qu’elle était si forte* → subyektivlik belgisi;

♦*pensez donc* → og‘zaki nutq belgisi;

♦*Et Madeleine?* → ifodalik belgisi;

♦*Son mari...* → ifodalik belgisi;

♦*Ah, les hommes* → og‘zaki nutq belgisi;

♦*ils n’en auraient qu’un seul* → subyektivlik belgisi.

Ushbu parchada biz aniq bo‘lmagan ma‘ruzachining fikrlarini kuzatib turibmiz. Hikoyada o‘tgan zamonning l’imparfait (pouvaient), le plus-que-parfait (avait conservé), le présent du conditionnel (recommenceraient) kabi formalari qo‘llanilgan. Kirish so‘zlari ishlatilmagan va gaplar o‘rtasida bog‘lovchilar mavjud emas.

Xulosa. Boshqa tillar singari, fransuz tilida ham o‘zgalar nutqi ifodalanishining eng oddiy usuli ko‘chirma nutqdir. Ko‘chirma nutqda o‘zganing fikri hech o‘zgarishsiz, aynan bayon qilinadi. O‘zgalar nutqi ifodalanishining ikkinchi muhim usuli o‘zlashtirma nutqdir. Nutqning bu turida o‘zgalarning xabari qisman o‘zgarish bilan muallif nomidan bayon etiladi. O‘zgalar nutqining uchinchi turi faqat badiiy adabiyotga xos bo‘lib, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma nutq deb ataladi. O‘zgalar nutqining bu turi muallif

matniga qo'shib, asar qahramonlari fikr va tuyg'usini ifodalaydi, ularning ichki dunyosini ochib berishga xizmat qiladi.

Nutqiy maqsad-u vazifa taqozo qilsa, xabar manbayi o'zlashtirma gapdan oldin turadi. Bunday holda, avval, nutqiy amal uchun muhim hisoblangan biror voqea-hodisa haqida xabar beriladi, keyin muayyan ish-harakat o'zlashtirib bayon qilinadi. Xabar manbayi o'zlashtirma gapning o'zida kelishi yoki nutqiy maqsadu vazifa taqozo qilmasa, kontekstda aniq ifodalanmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fransuz tili nazariy grammatikasi. Gak V.G. Rus tilidan tarjima. Tarjimon I.K.Mirzayev. T., "Tafakkur qanoti", 2016, 100-bet.
2. La grammaire théorique et pratique de la langue française. D.Margot. Troisième édition. Sn-Pétersbourg. 1875, 260 p.
3. Zikrillayev G'. Ruh va til. Toshkent, "Fan", 2018, 464-bet.
4. O'zbek adabiy tilida o'zlashtirmalik va matn [matn]. Monografiya, F.S.Safarov, E.B.Jumayev. Buxoro, "Durдона" nashriyoti, 2022, 132-bet.
5. Рўзиев Я.Б. Ўзбек тилшунослигида кўчирма ва ўзлаштира нутқнинг талқини тавсифи. "БухДУ илмий ахбороти", Бухоро, БухДУ, 2022, 4-сон, 68 – 77-бетлар.
6. <https://www.superprof.fr/ressources/langues/francais/college-fr2/3eme-fr2/quel-type-de-discours.html>.
7. <https://www.maxicours.com/se/cours/les-paroles-rapportees-le-discours-indirect-libre>.

Mardiyev To'liqin Kulibayevich (SamISI dotsenti, Tillarni o'qitish kafedrasini mudiri)

O'ZBEK TILIDA BAXT LEKSEMASINING ETIMOLOGIK VA METAFORIK JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada an'anaviy madaniyatga ko'ra, baxt tuyg'usi inson yoki jamiyatning qadriyatlar, afzalliklar va moddiy boyliklar haqidagi tushunchalari va g'oyalari tizimini qamrab olgan kategoriya sifatida tushuniladi. Maqolada, shuningdek, baxt tuyg'sining etimologik tahlilga ko'ra tojikcha, arabcha qanday ma'noni anglatishni, mazkur tillarda mavjud bo'lgan izohli lug'atlar yordamida qiyosiy tahlili berilgan. Jumladan baxt tuyg'sining mental ma'nolari nafaqat nazariy, qolaversa, ushbu leksemaning semantik jihatdan qanchlik boyligi donishmandlar fikrlari bilan ham maqolada bayon etiladi.

Аннотация. В этой статье, согласно традиционной культуре, чувство счастья понимается как категория, охватывающая систему понятий и представлений человека или общества о ценностях, предпочтениях и материальных благах. В статье также дается сравнительный анализ значения слова «счастье», этимологический анализ на таджикском, арабском языках с использованием имеющихся в этих языках толковых словарей. В то время как ментальные значения чувства счастья в предложениях являются не только теоретическими, семантическое богатство этой лексемы, комментируются мнения известных мыслителей.

Annotation. In this article, according to traditional culture, the feeling of happiness is understood as a category encompassing the system of ideas and representations of a person or society about values, preferences and material goods. The article also provides a comparative analysis of the meaning of the word happiness by etymological analysis in Tajik, Arabic languages using explanatory dictionaries available in these languages. While the mental meanings of the feeling of happiness in sentences are not only theoretical, the semantic richness of this lexeme is also explained in the article by the opinions of wise men.

Kalit so'z: baxt va quvonch, shodlik, oqibat, mehr, istak, iliq munosabat, e'tibor, lingvomadaniy, til va madaniyat, tafakkur, emotsional, axloqiy, tuyg'ular, lisoniy, hissiy, verbal, qadriyatlar.

Ключевое слово: счастье и радость, веселье, доброта, привязанность, желание, теплое отношение, внимание, лингвокультурный, язык и культура, мышление, эмоциональный, нравственный, чувства, языковой, эмоциональный, вербальный, ценности.

Key words: happiness and joy, fun, kindness, affection, desire, warm attitude, attention, linguocultural, language and culture, thinking, emotional, moral, feelings, linguistic, emotional, verbal, values.

Kirish. Shu narsa bizga ma'lumki, har bir inson hayoti davomida baxtli hayot kechirish, baxtsizlikdan qochib yashashga intiladi. Insonning bilimi, hayotiy tajribasi ortib borar ekan, uning baxt-saodat haqidagi tasavvurlari o'zgarib, shakllanib boraveradi. Insoniyat tarixiga e'tibor bilan qarasak, ushbu tushuncha yoki konsept to'g'risidagi insonlarning fikrlari, g'oya va tasavvurlari izchillik bilan bog'lanib borganligini kuzatish mumkin. O'tmish mutafakkir olimlari o'z asarlarida baxt tuyg'sini turlicha holatlarda namoyon bo'lishini isbotlab, ijtimoiy hayotda insonning eng oliy tuyg'ularidan biri ekanligini ta'kidla-